

Abdulla Oripov ijodida sinonimlarning qo‘llanilishi

Polvannazarova Dilnoza

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti:

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

polvannazarovadilnoza@gmail.com

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, poetik, sinonim, kontekstual sinonim, ketma-ket sinonim, uslubiy va leksik sinonim.

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Oripov she’riyatida sinonim va uning turlarini qo‘llanilishi tahlilga tortilgan.

Ключевые слова: общение, поэтический синоним, контекстуальный синоним, секвенциальный синоним, стилистический и лексический синоним.

Аннотация: В статье анализируется употребление синонимов и их видов в поэзии Абдуллы Орипова.

Key words: communication, poetic synonym, contextual synonym, sequential synonym, stylistic and lexical synonym.

Abstract: The article analyzes the use of synonyms and its types in Abdulla Oripov's poetry.

Til nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki estetik hodisa sifatida ham o‘rganilib kelinmoqda. Tilning estetik-stilistik xususiyatlari badiiy matnda namoyon bo‘ladi. Badiiy matnlarni poetik jihatdan tadqiq etish, estetik qimmatini belgilashda til vositalaridan sinonimlarning o‘rni beqiyos. Shu tufayli tildagi sinonimlarni yaxshi egallash, ulardan to‘g‘ri foydalanish, kishi nutqi uchun kata imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida ular o‘z fikr va idealarining eng nozikholatlarini, o‘z nutqlarining hamma ma’no jilolarini tushunarli va ravshan, ravon va jozibador, shirali va ta’sirchan qilib ifodalash sharafiga muyassar bo‘ladilar.¹

Sinonimlar-talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma’no bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar gruppasi sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonomik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin:

¹ Abdurahmonov X, Mahmudov N. So‘z estetikasi. – T.: 1981, 6-bet.

gul, chechak; boplamoq, qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o‘xshatmoq, o‘rinlatmoq, do‘ndirmoq kabi.²

Abdulla Oripov she’rlarida ko‘zga tashlanib turadigan muhim xususiyatlardan biri shoirning har bir so‘zni qadrlagani, uni o‘z va ko‘chma ma’nolarini topib o‘z o‘rnida qo‘llay olganidir. Shoir sinonimlarni juda mahorat bilan qo‘llay olgan ijodkordir.

Abdulla Oripov she’riyatida grammatik hamda semantik sinonimlar qo‘llangan. Shoir she’riyatida bir sinonimik qatordagi so‘zlarning qo‘llanilishi ko‘p uchraydigan holat holat hisoblanadi. Buni shoirning mashhur “Munojot” deb nomlangan she’ridan olingan parcha orqali isbotlaymiz:

Qani, ayt maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan *bag‘rimni ohang*.
Nechun kerak bo‘ldi senga *ko‘z yoshim*,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha *g‘am*.
Eshilib, to‘lg‘onib, ingranadi kuy,
Qaylardan tug‘ulmish bu *ohu-faryod*
Kim u *yig‘layotgan* Navoiymikin,
Va yo may *kuychisi* Hayyommikin *dod*.
Yetar, ey *cholg‘uvchi*, bas qil *sozingni*,
Bas, yetar *ko‘ksimga* urmagin xanjar.³

Ushbu parchada bir necha uslubiy va leksik sinonimlar mavjud. Xususan, *bag‘rim-* *ko‘ksim*; *ohang-kuy-soz*; *ko‘z yoshi*, *g‘am*, *eshilmoq ingramoq*, *to‘lg‘anmoq*, *yig‘lamoq*, *ohu-faryod*, *dod*, *kuychi*, *cholg‘uvchi* kabi so‘zlar misralarda badiiy bo‘yoqdorlikni oshirish uchun alohida xizmat qilgan.

She’r tarkibida bu kabi sinonim so‘zlarning qo‘llanilishi she’r ma’no kengayishiga, fikrning rang-barangligini ko‘rsatishga, ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Yuzaga chiqarilishi lozim bo‘lgan fikrning ta’sirli, o‘rinli va ma’noli so‘zlarning o‘rni bor.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma’lum kontekst doirsida (demak nutq) ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi.⁴

² A. Xojiyev. O‘zbek tili sinonimlari izohli lug‘ati. O‘qituvchi. – T.: 1974.

³ A. Oripov. Shoir yuragi. Ma’naviyat. – T.: 2003.

⁴ Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

Lugʻaviy sinonimlarga uzuallik xos boʻlsa, kontekstual sinonimlarda okkozionallik mavjud. Kontekstual sinonimlar ijodkorning ijodiy imkoniyatlari samarasi boʻlib, maʼnolari har xil soʻzlar matn tarkibidagina umumiy semaga ega boʻlib, matndan tashqarida maʼnolari turlichadir. Shu sababdan adabiyotlarda ideografik, stilistik, kontekstual hamda individual – muallif sinonimlari tarzida nomlanadi.⁵ Kontekstual sinonimga misol qilib Omon Matjonning “Xolat” sheʼridan olingan quyidagi parchani koʻrishimiz mumkin:

Bir tum dengizga ham boqqil betuygʻu,
Dema, oʻylarimday u *teran, tengsiz*.
Bir zum baliqlarga vatan boʻlsin u,
Bir zum dengiz boʻlib guvlasin dengiz.⁶

Misradagi *teran, tengsiz* soʻzlari matndan tashqarida alohida-alohida soʻz hisoblanib, sheʼrning ichida esa oʻzaro sinonim holatida kelgan.

Sinonimlarni sheʼrning stiliga xos ruh va ohang bilan tiza borish oʻquvchi diqqatini shu asar voqeasiga musiqiy yoʻl bilan butunlay jalb qiladi. Sinonimning bunday birin-ketin ishlatilishi sheʼrda ifodalanayotgan mazmuni har xil shaklda va turli maʼno nozikligida taʼsirli qilib berishga xizmat qiladi.⁷

Abdulla Oripovning “Quyosh shahri” sheʼrida ham yuqoridagi gapimizning isbotini koʻrishimiz mumkin:

Eng teran chashmadek *tinib, sizilib*,
Asrlar qaʼridan keladi xabar:
Ikki ming yil burun chayla buzilib,
Qoʻrgʻon *barpo boʻldi, yaraldi* shahar.⁸

Ushbu misrada ketma-ket qoʻllangan *tinib, sizilib* hamda *barpo boʻldi, yaraldi* soʻzlari oʻquvchini oʻziga qaratish uchun musiqiylikni taʼminlagan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning maʼnodosh soʻzlar hosil qilishdagi oʻziga xosligi tilimizda, nutqimizda leksemalarni faollashtirishda koʻrinadi. Shuningdek, shoir sheʼrlarida sinonimlar muhim oʻringa ega boʻlib, ular sheʼr uslubi va tilining serqirra, boy va rang-barang boʻlishiga, bir xillik va qaytariqlarning oldini olishga, matnda boshqa soʻzlar bilan mutanosib qoʻllanib, sheʼrning ohangdorligi,

⁵ Muhammadjonova. G. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlari oʻzbek sheʼriyatining lingvopoetik tadqiqoti. ND. – Andijon, 2003, 38-bet.

⁶ A. Oripov. Tanlangan asarlar. Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. – T.: 2000.

⁷ X. Doniyorov, B. Yoʻldoshev. Adabiy til va badiiy stil. Fan. – T.: 1988, 143-bet.

⁸ A. Oripov. Tanlangan asarlar. Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. – T.: 2000.

musiqiyiligini ta`minlashga, ma`nodosh so`zlar yonma-yon qo`llanib, belgining kuchayib, ortib borishiga xizmat qilgan. Kontekstual sinonimlar esa shoirning lisoniy imkoniyatlarini, favqulodda yangi poetik oxorga ega badiiy tasvir yaratib, ijodiy kredosini aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So`z estetikasi. – T.: 1981
2. A. Xojiyev. O`zbek tili sinonimlari izohli lug`ati. O`qituvchi. – T.: 1974
3. A. Oripov. Shoir yuragi. Ma`naviyat. – T.: 2003
4. Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – T.: 1969.
5. Muhammadjonova. G. 80-yillar oxiri – 90-yillar boshlari o`zbek she`riyatining lingvopoetik tadqiqoti. ND. – Andijon, 2003.
6. A. Oripov. Tanlangan asarlar. G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. – T.: 2000.
7. X. Doniyorov, B. Yo`ldoshev. Adabiy til va badiiy stil. Fan. – T.: 1988.

Research Science and
Innovation House

